



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 1 2025-YIL 28-YANVAR

VATANPARVARLIK – YUKSAK ISHONCH VA SADOQAT RAMZI



Vatanparvarlik — bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydi.

Vatanparvarlik barcha kishilar, xalqlar, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, Xorazmshohlar davlatining markazi bo'lgan Xivaga Chingizxon bosqini davrida mashhur

tasavvuf olim buyuk ajdodimiz Najmiddin Kubroga qamal vaqtida shaharni tark etish va unga mo'g'ullar tomonidan hech qanday jabr yetkazilmasligi aytilganda, Kubro vatanini tark etmaydi. Hattoki 76 yoshida bo'lsa ham jangda qatnashib tug' (bayroq) tutgan mo'g'ul askariga tashlanib halok bo'ladi. Uning vatanparvarlik tuyg'usini shu davrning buyuk farzandi Jaloliddin Manguberdi timsolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zi tug'ilib voyaga yetgan vatani uchun bir necha marotaba mo'g'ullar bilan janglarga kirib ularni mag'lubiyatga uchratadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda ajdodlarga munosib avlod bo'lish, yoshlarni har tomonlama ma'nan yetuk bo'lishlari, vatanparvarlik tuyg'ulari yuksak bo'lishi uchun keng ishlar olib borildi. Chunki yoshlar – bizning kelajagimiz.

Har bir barkamol inson Vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi gullab-yashnashi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fuzuliyning "Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim", deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaho o'g'itdir.

Inson uchun na davlat va saltanat, na toju taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng kelolmaydi. Vatanparvarlik butun millatning ertangi kuni, uning taraqqiyoti va rivojlanish yo'lini har tomonlama mustahkamlashga keng asos yaratib beradi.

Ziyoda RASULOVA,
jurnalist



Ona – bitta, Vatan – yagona.



AKADEMIYAGA YUKSAK E'TIROF



Vitebsk davlat tibbiyot universiteti (Belarus) rektoratining 2025-yil 3-yanvardagi qaroriga muvofiq, Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b. Boymurodov Shuhrat Abduljalilovichga "Faxriy professor" unvoni taqdim etildi.

Ushbu yuksak mukofot ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi samarali hamkorlik va Shuhrat Boymurodovning xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirishdagi faol ishtirokini e'tirof etish maqsadida berildi.

Ushbu mukofot Akademiyaning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirib, oliy tibbiy ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu esa ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim qadamlardan biri bo'ldi.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Talabalar turar joyida 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda Akademiya rahbariyati, talabalar va harbiy xizmatchilar ishtirokida davra suhbat tashkil etildi.

Shuningdek, tadbir davomida harbiylarimizning jangovar mahorati hamda zamonaviy harbiy texnikalar bilan ko'rgazmali chiqishlari taqdim etildi.

Bu uchrashuv nafaqat Vatan himoyachilari sha'nini ulug'lash, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TIBBIY TA'LIMDA SIMULYATSIYA:

HINDISTON

Toshkent tibbiyot akademiyasi delegatsiyasi Hindistondagi ta'lim jarayonini o'rganish maqsadida Rajamundryga borishdi.

Tashrifning dastlabki haftasida ular Rajamundry shahridagi GSL Tibbiyot universiteti asoschisi Dr. Ganni Bhaskar va kafedra mudirlari bilan uchrashdi.

Delegatsiya a'zolari uchun universitet kampusi bo'ylab sayohat uyushtirildi. 24/7 rejimida faoliyat olib boradigan "Green Library"ning "Simulation center"i bilan yaqindan tanishishdi.

Shuningdek, universitetning Anatomiya, Mikrobiologiya, Patologik Anatomiya, Biofizika,

Biologik kimyo kafedralari o'qitish tizimi o'rganildi.

"Competency Based Medical education", "Soft skills" mavzusida interaktiv darslarda qatnashdilar. Shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarni talabalarga o'rgatishning zamonaviy usullari bilan tanishishdi.

Bundan tashqari, universitet qoshidagi GSL kasalxonasi ma'muriyati, Ichki kasalliklar, Reanimatsiya, Kardiologiya, Nefrologiya, Xirurgiya bo'limlarida bo'lib davolash jarayoni, bemor xavfsizligi bo'yicha tashkiliy



jarayonlari o'rganildi.

GSL Dental universiteti bitiruvchilari sharafiga tashkil qilingan marosim Toshkent tibbiyot akademiyasi delegatsiyasida katta taassurot qoldirdi.

Parlament a'zosi, Rajamundry hokimi, universitet professor-o'qituvchilari ishtirok etgan marosimda o'zbekistonlik mehmonlarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

TTA Matbuot xizmati



Vatan tinchlik qo'rg'oni, har bir o'g'lon uning posboni.



Prezident Qarori ijrosi amalda



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHILARIDAN BIRI

Kuni kecha davlatimiz rahbari jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi, olim, pedagog, shoir, yozuvchi, mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilgini keng nishonlash to'g'risidagi qarorga imzo chekdi. Bu millatimiz olimlari va ijodkorlari tomonidan yaxshi kutib olindi.

Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo'ja Behbudiy ko'plab sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o'rganilgan. Lekin Behbudiy til haqida ham fikrlarini aytib o'tgan. Uning o'zbek tili, umuman mintaqadagi til siyosati borasidagi fikrlari bugungi kunga qadar eskirmagan.

Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo'lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qilib, quvvatladi. Dastlab u o'sha davrning aksariyat musulmon ziyolilari kabi Rossiya musulmonlarining yagona tili bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyaga qiziqish bildirdi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnomalar va tajriba ham o'tkazdi. Bu jihatdan biz Behbudiyning turkistonliklar ichidagi birinchi sotsiolog sifatida ham kashf etamiz.

Behbudiy bu sotsiologik tadqiqot davomida umuman gazeta o'qimagan, boshqa turkiy xalqlar tilidan xabari yo'q oddiy odamlarga turli gazetalarni o'qitib eshittirdi va shu yo'sinda Turkistonning turli hududlaridan o'qib eshittirilgan gazetalarning «tili» bo'yicha fikrlarni jamladi, umumiy xulosa berdi. Behbudiy o'tkazgan tajriba va so'rovnomalar asosida turkistonliklar uchun Gasprinskiyning «Tarjimon» gazetasi, sibirlilik, asli buxorolik tujjorning avlodidan bo'lgan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Abdurashid qozi nomi bilan tanilgan Abdurashid Ibrohimovning «Mir'ot» jurnali hamda «Ulfat» gazetasining tili ko'proq tushunarli, degan xulosaga keldi. Va «chorak asrdan beri millatimizga tili, qalami, qalb quvvati bilan xizmat qilgan, yangi matbuotimiz raisi ham otasi janob Ismoilbek hazratlariga til bobida ergashmoq Rossiyadagi hamma muharrirlarga lozim» ekanini tavsifiya qildi. Bu bilan Behbudiy ham Gasprinskiy kabi Rossiya musulmonlari birligining asosi va negizida til birligi bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning «o'rta sheva»sini ilgari surdi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1913–1915-yillarda Samarqandda Behbudiy nashr etgan «Oyina» jurnalini ko'rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o'z o'quvchilari bilan hamfikir va hammaslak ekanini bildirish va ko'rsatish deb baholadi.

Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy «Oyina»ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili «Tarjimon»ga yo'llagan «Turkistonda maktab lisoni» nomli maqolasida ko'targan

edi. Behbudiy turkiy va forsiy tillarning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratmoqchi bo'ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanini ilgari surdi. Behbudiy fikrlarini quyidagi argumentlar bilan isbotlashga harakat qildi:

Turkistondagi aksariyat shahar aholisi turkiy va forsiyda bemalol muloqot qiladi;

Ba'zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatiladi; Rasmiy idoralarga arizalar turkiyda yoziladi;

Shar'iy fatvolar forsiyda yozilib, turkiyda qayd qilinadi va bu usulga butun Turkistonda amal qilinadi. Behbudiy maqolasining so'ngida keltirgan isbot va dalillariga tayangan holda Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o'qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosa berdi. U (umum) turkiy tilni «Tarjimon» gazetasi vositasida o'zlashtirganini bayon qilar ekan, «ona tilim forsiydir, yozgan turkchamni ruhoniyo hojam "Tarjimon" sahifalaridan tahsil etdim», degan fikri bilan o'rtoqlashadi. Bu esa Gasprinskiy taklif qilayotgan (umum) adabiy yoki (umum) turkiy til yaratilganidan darak beradi. Gasprinskiy nashr etgan «Tarjimon» gazetasining Turkiston o'lkasidagi e'tiborini «usuli jadida nomi bilan isloh qilingan va ochilgan maktablar muhtaram "Tarjimon" ta'sirida alifbodan oxiriga qadar turkcha dars berib, Turkistonda turkchani yoyilishiga xizmat qilgan»ida ham ko'rish mumkin. Bu so'zlar ham Behbudiyga taalluqli. Uning «Oyina» jurnalining ilk sonida chop qilingan «Ikki emas, to'rt til lozim» maqolasida turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo'lishi, zamona ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo'lishi uchun «turkiy, forsiy, arabiy va rusiy» tillarini bilishi, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga etishi lozimligi ta'kidlanadi. Behbudiy bu maqolada «turkiy» til deganda mahalliy xalqning aksariyati so'zlashadigan «o'zbekiy» tilni nazarda tutadi. Unga ko'ra, to'rt tilning o'rganishga sabablar quyidagilardan iborat:

1) «turkiy, ya'ni o'zbekiy» – Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til;

2) «forsiy» – «madrassa va udabo tilidir. Bu kungacha Turkistonni har tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur»;

3) «arabiy» – madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda;

4) «rusiy» – «zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat» qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.

Behbudiy til o'rganishga sabab bo'ladigan omillarni ko'rsatar ekan, turkiy va forsiy mahalliy xalq uchun ikkisi birday ona tili bo'lgani uchun «bizg'a saodat» ekanini ta'kidlaydi.

Behbudiy nima uchun rus tilini o'rganishga turkistonliklarning diqqatini qaratmoqchi edi? Unga ko'ra, millat butunlay yo'q bo'lib ketmasligi uchun ular ham tijorat, ham sanoat, ham siyosatda boshqa taraqqiy etgan xalqlar bilan

(Davomi 4-betda)



Mardlar qo'riqlaydi Vatanni.



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHILARIDAN BIRI

(Boshi 3-betda)

bir qatorda, yonma-yon harakat qilishi kerak. Turkistonliklar orasida hatto millat va Vatan manfaati uchun g‘arb tillarida, jumladan, rus tilida yuqori minbardan turib gapirishga qodir biror kishi topilmaydi. Bu qusurlarni yo‘q qilish uchun esa rus tilini o‘rganish, Rossiya universitetlarida tahsil olish hamda barcha qonunlardan xabardor bo‘lmoq kerak. Behbudiy til o‘rganish masalasini siyosiy masala sifatida ko‘tarib chiqdi va Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo‘l ochishi to‘g‘risida yozdi.

Ayni masalani, ya‘ni rus tilini o‘rganish turkistonliklar uchun naqadar muhim ekanini Abdurauf Fitratning «Munozara» asariga yozgan taqrizida ham ko‘targan. Behbudiyning adabiy til borasidagi qarashlari uning 1915-yili yozgan «Til masalasi» nomli maqolasida aks etgan. Ushbu maqola ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda Behbudiy turkiy tilning shevalari xususida fikr yuritadi. Unga ko‘ra, turkiy tilning Turkiston o‘lkasida tarqalgan sheva va lahjalari yuz yillar davomida fors madaniyati va adabiyoti ta‘sir ostida bo‘lgani sabab ushbu tildan juda ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgani, tub turkiy so‘zlar ushbu vaqt davomida iste‘moldan chiqib, unutilib ketgan.

Bunday so‘zlarning muqobili mavjud emas. Behbudiy turli mintaqalarda yashaydigan turkiy xalqlarning tili ham turkistonliklarning tilidan qolishmaydigan darajada fors va

arab tili ta‘siriga tushgani, hatto ayrimlari «forsiy va arabiyini u qadar ko‘p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo‘shulub “usmonli tili” ataldi». Behbudiy usmonli tili haqida gapirar ekan, ushbu tilda ravon yozmoq va o‘qib tushunmoq uchun «uch tilning adabiyot va qoidalaridan boxabar» bo‘lish kerakligi, aks holda «usmonli shevasida yozilgan asarlarning aksarini» nafaqat usmonli turklarning «kamsavodi», balki ayrim ziyolilari ham anglamas darajaga kelib qolganini ta‘kidlaydi.

Behbudiy Turkiston shevalari borasida yozar ekan, u o‘zini yetuk tilshunos sifatida namoyon etadi. Behbudiy turkistonliklarning yashash mintaqasiga qarab sheva va lahjarlar qay darajada fors va arab tili ta‘siriga tushgani va bu jarayon «barcha yerda bir holda bo‘lmay, balki mavqe‘i jug‘rofiyasiga qarab har nav» ekanligini tadqiq etdi. Va turkiy til qanchalar boshqa til ta‘siriga tushib o‘zgargan bo‘lmasin, barcha «lahja ila so‘ylayturgonlarning har biri boshqasini so‘ziga tushunadurlar», degan xulosa beradi.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek millati, tili va davlatchiligida olimning hissasi beqiyosdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev Mahmudxo‘ja Behbudiyning Vatan, millat oldidagi xizmatlarini alohida e‘tirof etib, ular millat oydinlaridandir deb faxr bilan e‘tirof etdi.

Alijon ZOHIDIY,
Yevropa tabiiy Fanlar akademiyasi akademigi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon Xalq yozuvchisi

XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI KENGAYMOQDA



Toshkent tibbiyot akademiyasi xalqaro maydonda hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash yo‘lida muhim qadamlarni tashlamoqda.

Kuni kecha akademiyada dunyoning yetakchi xalqaro universitetlari vakillari ishtirokida muhim uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida tibbiyot



sohasi bo‘yicha bir qator kelishuvlarga erishildi. Mazkur kelishuvlar ta‘lim sifatini oshirish, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va akademik almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yishni ko‘zda tutadi. Jumladan, talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun yangi o‘quv va ilmiy imkoniyatlar yaratilishi rejalashtirilmoqda.



Mazkur hamkorlik aloqalari nafaqat Toshkent tibbiyot akademiyasi, balki mamlakatimizda tibbiyot sohasining rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida izchil faoliyat olib borishda davom etmoqda.



Vatan Ona singari aziz va tanhodir.



YOSHLAR QO‘LLAB- QUVVATLANMOQDA



Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etayotgan, salmoqli yutuqlarda, samarali ilmiy faoliyatda alohida o‘rnak bo‘layotgan yoshlar qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda.

“Scientific Academy” ilm-ma‘rifat markazi tomonidan “O‘zbekistonda yangi uyg‘onish – Uchinchi Rennans: ilm-fan taraqqiyotida yoshlarning o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida respublikada ilm-fanni rivojlantirishdagi yutuqlari va xizmatlari uchun Toshkent tibbiyot akademiyasining o‘qituvchisi Ro‘zibek Tolmasov “ILM-FAN ZIYOSI” diplomi bilan taqdirlandi.

Ta‘limning turli yo‘nalishlarida tahsil oluvchilar o‘rtasida “Yosh tadqiqotchi: bilim cho‘qqilaridagi muammolar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida 1-son davolash ishi fakulteti talabasi Rufatxon Raxmatxonov “Yosh tadqiqotchi” ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlov sertifikatini va ko‘krak nishoni sovrindori deb e‘tirof etildi.

Bu natijaga erishishimda Toshkent tibbiyot akademiyasi “Odam anatomiyasi va OXTA” kafedrasida o‘qituvchilarining beqiyos xizmatlari bor. Xususan operativ xirurgiya va topografik anatomiya fani o‘qituvchisi R.Tolmasovga alohida minnatdorchilik bildiraman. Maqsadim kelajakda Toshkent tibbiyot akademiyasi odam anatomiyasi va OXTA kafedrasidagi ustozlarim kabi talabalarga dars berish hamda asosiysi eng yaxshi travmatolog bo‘lishdir.

Rufatxon RAXMATXONOV



TALABALAR TURAR JOYI MASALALARI MUHOKAMA ETILDI

Toshkent tibbiyot akademiyasida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi pedagoglar bilan birgalikda o‘quv yilining ikkinchi yarmidagi masalalar bo‘yicha seminar bo‘lib o‘tdi.

Unda talabalar sharoiti va bo‘sh vaqtini mazmuni o‘tkazish, turar joydagi talabalar bilan tarbiyaviy va psixologik ishlash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaga mihtoj talabalar kontingenti va iqtidorli talabalar bilan ishlash masalalari muhokama etildi.

Seminarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabalarning yashash sharoiti, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar ehtiyoji va ular bilan yakka tartibda ishlash boyicha talabalar turar joyi xodimlari o‘rtasida fikr va tajriba almashildi.

Talabalar turar joyida yangi sharoit yaratish va istiqbolli rejalar boyicha takliflar berildi.



*Har bir kishi — o‘z baxt-
saodatining ijodkori.*



TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI



Toshkent tibbiyot akademiyasida “Oliy tibbiy ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o’rni va erishilgan yutuqlari” mavzusida xalqaro o’quv-uslubiy anjuman bo’lib o’tdi.

Anjuman oliy tibbiy ta’lim sohasidagi eng dolzarb masalalarni muhokama qilish, tajriba almashish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etildi.

Unda O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi vakillari, Raqamli texnologiyalar vazirligi mas’ullari, xorijiy ekspertlar ko’plab mamlakatlardan oliy ta’lim sohasidagi taniqli mutaxassislar, Toshkent tibbiyot akademiyasi rahbariyati va boshqa oliy ta’lim muassasalari rektorlari, professor-o’qituvchilari ishtirok etishdi.

Raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyotga o’tish davrida oliy ta’limning kelajagi va rivojlanish istiqbollari raqamlashtirish jarayonlari bilan bevosita bog’liq. Bu esa o’z o’rnida jamiyatda ilm-fan va ta’limga raqamli texnologiyalariga asoslangan yangi munosabatlar shakllanishiga asos bo’lyapti.

Anjuman quyidagi yo’nalishlarda:

Kredit-modul tizimi va o’quv jarayonini tashkil etish.

Tibbiy ta’lim sifatini oshirishda simulyatsion o’qitishning o’rni.

Tibbiy ta’limda raqamlashtirishning ahamiyati.

Mustaqil ta’lim: muammo va istiqbollar.

Tibbiyotda ta’limning turli masalalarida ish olib bordi.

Anjuman yakunida tibbiy ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish uchun qo’shma loyiha guruhlarini tashkil etildi. Konferensiya doirasida kafedralar kesimida o’tkazilgan taqdimotlarda mustaqil ta’limni faollashtirishga ko’maklashadigan zamonaviy yondashuvlar haqida tajribalar almashinib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim-tarbiya jarayoni ayniqsa talabning ijodiy fikrlashi va shaxsiy o’sishiga ko’rsatadigan ijobiy natijalari borasidagi ilmiy ishlanmalar taqdimoti o’tkazildi.

Anjuman O’zbekiston oliy tibbiy ta’lim sohasini raqamli transformatsiya qilish yo’lidagi muhim qadam bo’ldi va sohada yangi yutuqlar sari ilhomlantirdi.

Gulchehra MIRZAYEVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Matbuot kotibi



JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o’qituvchilari va xodimlari uchun seminar o’tkazildi.

Ta’kidlash joizki, Toshkent tibbiyot akademiyasi oliy ma’lumotli tibbiyot xodimlarini tayyorlashga ixtisoslashgan eng nufuzli tibbiyot oliygohlaridan biridir.

Bu dargohda bilim olayotgan talabalar qanday bo’lishi kerak? Egallayotgan bilim, orttirilayotgan tajriba bugungi kun talablariga to’la javob beryaptimi? Bo’lajak tibbiyot kadrlarini tayyorlashga mas’ul pedagogik jamoaning bu borada o’rni qanday?

Zamonaviy bilimlarni puxta egallash uchun barcha sharoitlar yaratilgan va innovatsion yondashuvlar bilan kun sayin ilgarilab borayotgan Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari bu mas’uliyat yukini qay darajada his etmoqda?

Seminarda professor-o’qituvchilardan tortib, tarbiyachi pedagoglar va barcha xodimlarning vazifalari, e’tibor qaratish lozim bo’lgan jihatlarga to’xtalib o’tildi.

TTA Matbuot xizmati



Vatanni sevmiq iymondandir.



O'QITUVCHILAR UCHUN SEMINAR

Toshkent tibbiyot akademiyasiga birlashtirilgan 1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchilari uchun seminar tashkil etildi.

Tibbiyot texnikumlariga o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan navbatdagi seminar Toshkent tibbiyot akademiyasining "Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika" kafedrasini mudiri Muratali Bazarbayev, kafedra katta o'qituvchisi Abdusamad Sobirjonov hamda kafedra assistenti Jamshidjon Abdurazzoqov tomonidan o'tkazildi.

Seminar hozirgi davrning dolzarb mavzulari, ya'ni "Elektron ta'lim resurslari va raqamli texnologiya" hamda "Professional ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimiga" to'xtalib o'tildi. Birgalikda ilmiy maqolalar yaratish rejalari tuzildi.

Kafedrada o'tkaziladigan seminar va ilmiy-amaliy anjumanlarga texnikum pedagoglarini ham jalb etish rejalashtirildi.



O'tganlarni oxirati obod bo'lsin

ABDUALIM ABDURAXMANOV

Joriy yilning 9-yanvar kuni 1970-yildan 2000-yillargacha "Sotsial gigiyena va sog'liqni saqlashni tashkil etish" kafedrasida faoliyat ko'rsatgan tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Abduraxmanov Abdualim Abduraxmonovich vafot etdi.

Ustoz Toshkent davlat tibbiyot institutini tugatgandan so'ng mazkur dargohning "Sotsial gigiyena va sog'liqni saqlashni tashkil etish" kafedrasida assistent lavozimida faoliyatni boshladi. Tirishqoq, izlanuvchan bo'lgan ustozimiz 1980-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Ushbu kafedrada 1990-yilgacha dotsent

lavozimida ishlab kelgan. Shu bilan birga 1987-1989-yillarda Viloyat sil kasalliklari sanatoriyasida bosh shifokorlik lavozimida ham faoliyat yuritgan.

1990-yildan 2000-yilgacha 2-ToshMI "Sotsial gigiyena va sog'liqni saqlashni tashkil etish" kafedrasida mudirlik lavozimida samarali faoliyat olib borgan ustozimiz nafaqaga chiqdi.

Ustozni doimo xotirlab, hurmat bilan eslavchi Toshkent tibbiyot akademiyasi va "Jamoat salomatligi va menejment" kafedrasini xodimlari marhumning oila a'zolari va yaqinlariga sabr tilagan holda hamdardlik bildirib qolamiz.

"TALABALAR TEATR STUDIYALARI" KO'RIK-TANLOVI

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan "Talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanlovining 2025-yilgi mavsumiga start berildi.

Har bir oliygo'hdan yanvar oyi yakuniga qadar OTM talabalar teatr jamoasi shakllantiriladi;

OTM terma jamoasi tomonidan teatr sahnasida tayyorlangan spektakl namoyish etiladi (bunda teatr zalida talaba-yoshlar tomoshabin sifatida ishtirok etishi shart) va to'liq video tasvirga olinadi.

Spektakl videosi davomiyligi 80 daqiqadan oshmagan holda, HD formatda 31-mart sanasiga qadar Respublika tashkiliy qo'mitasiga 1-prorektor tomonidan taqdim etiladi (spektakl videosini montaj qilishga ruxsat etiladi);

Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra eng yaxshi deb topilgan 8 ta

jamoat tanlovning final bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ladi (final odatdagidek offlayn tarzda tashkil etiladi).

Tanlov g'olibi bo'lgan jamoalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan quyidagi tartibda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:

- 1-o'rin - 70 million so'm;
- 2-o'rin - 50 million so'm;
- 3-o'rin - 30 million so'm.

Nominatsiyalar bo'yicha:
"Eng faol oliy ta'lim muassasasi" - 15 million so'm;

"Eng yaxshi erkak roli uchun" - 10 million so'm;

"Eng yaxshi ayol roli uchun" - 10 million so'm;

"Jamoat ijodkor talabasi" - 8 million so'm;

"Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari" - 7 million so'm.

TTA Matbuot xizmati



Vatan himoyasi – muqaddas burch.



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI
(2025-yil yanvar)**

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Oftalmologiya	katta o'qituvchi – 1,0
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 1,0
3.	1-son travmatologiya va ortopediya va XDX	assistent – 1,0
4.	Onkologiya	dotsent – 1,0
5.	Normal va patologik fiziologiya	assistent – 1,0
6.	Psixiatriya va narkologiya	katta o'qituvchi – 1,0
2-son davolash fakulteti		
7.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	assistent – 1,0
8.	Anesteziologiya va reanimatologiya	katta o'qituvchi – 1,0
9.	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	assistent – 1,0
10.	Tibbiy radiologiya	assistent – 1,0
11.	Klinik farmakologiya	assistent – 1,0
12.	Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi	katta o'qituvchi – 1,0
13.	2-son umumiy xirurgiya	assistent – 1,0
14.	2-son travmatologiya, ortopediya, XDX va neyroxirurgiya	assistent – 1,0
15.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	assistent – 0,5
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti		
16.	Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari	assistent – 1,0
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
17.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent – 1,0
18.	Patologik anatomiya	assistent – 1,0
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti		
19.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent – 1,0
20.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistent – 1,0
Xalqaro fakultet		
21.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistent – 1,0
22.	Tibbiy va biologik kimyo	assistent – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFda
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi